


ISAJON SULTONNING “OZOD” ROMANIDA INTERTEKSTUALLIK

**Sobirova Mohlaroy**

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Isajon Sultonning “Ozod” romanida intertekstuallik orqali diniy, falsafiy, klassik va zamonaviy adabiy manbalar bilan badiiy muloqotga kirishgan. Ushbu maqolada roman matnidagi intertekstual qatlamlar, ularning poetik va ideologik ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar:

intertekstuallik, diniy matnlar, klassik adabiyot, zamonaviy roman.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida adabiy jarayonlarda matnlararo munosabatlar, ya’ni intertekstuallik o‘ziga xos uslubiy hodisa sifatida keng o‘rganilmoqda. Intertekstuallik orqali badiiy matn nafaqat o‘z mazmunini boyitadi, balki o‘quvchini tarixiy, diniy, falsafiy kontekstga olib kiradi. Isajon Sultonning “Ozod” romani bu jihatdan o‘zbek zamonaviy adabiyotida intertekstual yondashuvning yorqin namunasi sifatida ajralib turadi. Roman orqali adib tarix, din, falsafa, klassik adabiyot va zamonaviy tafakkur oqimlarini bir badiiy tizimda mujassamlashtirgan. Intertekstuallik ilk bor Julia Kristeva tomonidan M.Baxtinning g‘oyalariga tayanib shakllantirilgan. Bu nazariyaga ko‘ra, har qanday matn o‘zi mustaqil mavjud emas, balki boshqa matnlar bilan muloqotda bo‘ladi. R. Bart bu holatni “matnning muallifi o‘lgan, o‘quvchi esa tug‘ilgan” degan ibora bilan izohlaydi. G. Jenett intertekstuallikni bevosita iqtibos, aluzion, pastish, travestiya, parodiya kabi shakllarda ifodalab, bu vositalar orqali matnning ko‘p qatlamli bo‘lishini ta’kidlaydi. U. Eko esa matnning “ochiqligi” haqida

gapirib, o‘quvchini interpretatsiyalovchi sub’ektga aylantiradi. Isajon Sulton roman klassik va zamonaviy yondashuvni o‘zida mujassamlashtirgan holda intertekstual model asosida qurilgan. “Ozod” obrazi orqali inson qalbidagi ikki dunyo – moddiy va ma’naviy olam, jismoniy va ruhiy iztiroblar, erkinlik va bandlik, mavjudlik va mavhumlik o‘rtasidagi kurash tasvirlanadi. Bu zamin, albatta, ko‘plab matnlar bilan aloqada bo‘lgan holda yoritiladi. Diniy manbalar, xususan Qur’oni Karim oyatlari; Navoiy, Mashrab, Hofiz kabi shoirlarning g‘oyalari; zamonaviy G‘arb falsafasi, ayniqsa ekzistensializm motivlari bu roman kontekstini boyitadi.

Adabiyotni o‘rganish

Intertekstuallik tushunchasi XX asr 60-yillarida Julia Kristeva tomonidan M. Baxthin qarashlariga tayangan holda ilgari surilgan. Kristevaga ko‘ra, har qanday matn boshqa matnlarning qayta yozilishidir. Genette esa bu jarayonni bevosita iqtibos (quotation), kinoya (allusion), plagiat va boshqa formalarda ajratib ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotida, ayniqsa mustaqillikdan keyingi davrda, intertekstuallik orqali yozuvchilar milliy merosni zamonaviy kontekstda qayta talqin qilmoqda. Shu jumladan, Isajon Sultonning ijodi bu jarayonning yorqin namunasi sifatida e’tiborga loyiq.

Asosiy qism

Roman matnida diniy intertekstualik chuqur qatlamni tashkil qiladi. Ozodning ruhiy holatlari, savollari, ichki dialoglari Allah va bandaning munosabati, qismat, ma’naviy yuksalish, gunoh va mag‘firat, sabr va shukr singari tushunchalar atrofida shakllanadi. Masalan, Nur surasi mazmuni Ozodning “nur izlash” yo‘li bilan uyg‘unlashadi. Boshqa bir epizorra, sabr va shukr haqida o‘y yuritishda Luqmon surasi ruhida mulohazalar mavjud. Bular orqali adib muqaddas matnlarni roman matni bilan yashirin aloqada ushlab turadi, o‘quvchini tafakkurga undaydi.

Isajon Sulton Navoiy, Mashrab, Bobur kabi tarixiy shaxslar g‘oyasini zamonaviy kontekstda talqin etadi. Ayniqsa, Mashrabning “erkinlik”, “may”, “ilhom” tushunchalari Ozod obrazining ichki ruhiyatida yangicha shaklda aks etadi. Adib bu

orqali nafaqat adabiy merosga murojaat qiladi, balki uni qayta yoritib, zamonaviy ruhda o‘qishga undaydi. Bu reinterpretatsiya orqali Isajon Sulton Mashrabning an’anaviy sharhini yangilaydi va uni global falsafiy kontekstda talqin etadi.

Roman obrazlaridan biri bo‘lgan Kamil orqali adib G‘arb falsafasiga, ayniqsa ekzistensialistlar – Kamyu, Sartr, Xaydegger g‘oyalariga ishora qiladi. Ozodning hayot mazmuni, irodaviy tanlovi, “badiy savollar”ga javob izlayotgan holati Kamyuning “Begona”si yoki Sartrning “Ko‘ngilsizlik” asari qahramonlarini eslatadi. Bu orqali adib o‘zbek romanini xalqaro adabiy diskurs bilan uyg‘unlashtiradi. Isajon Sulton “Ozod” romani orqali zamonaviy o‘zbek romanining yangi bosqichini yaratdi. Intertekstual qatlamlarning mavjudligi matnni ko‘p qirrali, estetik va falsafiy boylikka ega qilib ko‘rsatadi. Adibning bunday yondashuvi o‘zbek adabiyotini nafaqat milliy an’analar asosida, balki global adabiy jarayonlarga uyg‘un holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar

“Ozod” romani Isajon Sulton ijodida intertekstuallikning mukammal namunasi hisoblanadi. Unda tarixiy matnlar, diniy g‘oyalar, jadidlar merosi, adabiy timsollar o‘zaro bog‘langan holda ifoda etiladi. Muallif o‘zbek adabiyotining tarixiy qatlamlarini hozirgi zamon ruhida qayta jonlantiradi va madaniy xotirani tiriltiradi. Intertekstuallik asarning badiiy-estetik qimmatini oshiribgina qolmay, o‘quvchini tafakkurga, izlanishga chorlaydi. Maqola yakunida aytish mumkinki, “Ozod” — bu o‘zbek adabiyotining matnlararo xotirasi, o‘zlik izlovchi badiiy metamatr sifatida qimmatlidir

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kristeva J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. New York: Columbia University Press, 1980.
2. Bakhtin M. Problems of Dostoevsky’s Poetics. University of Minnesota Press, 1984.

3. Barthes R. Image, Music, Text. Fontana Press, 1977.
4. Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree. University of Nebraska Press, 1997.
5. Eko U. Ochiq asar. Toshkent: Yozuvchi, 1992.
6. Sulton I. Ozod. Roman. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2020.
7. Qur’oni Karim va tarjimasi. Toshkent: Hilol-nashr, 2013.
8. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: Fan, 1983.
9. Mashrab. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 1985.
10. Kamyu A. Begona. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.